



ZAMONAVIY INFORMATSION TELEDASTURLARDA MEDIA TILI VA
NUTQ MADANIYATI: MEDIALINGVISTIK TAHLIL

Kamalova Aysuliw

O'zJOKU magistranti,

aysuliw.12@gmail.com ORCID: 0009-0001-5496-5807

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy ommaviy axborot vositalarida, xususan, informatsion teledasturlarda qo'llanilayotgan media tilining lingvistik va uslubiy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot respublika telekanali — "My5 – Mening yurtim" telekanalining "Hudud" hamda Qoraqalpog'iston televideniyesining "Xabar" informatsion dasturlari materiallari asosida olib borildi. Monitoring jarayonida jurnalist nutqida uchraydigan leksik, stilistik va normativ kamchiliklar aniqlanib, ularning auditoriya nutq madaniyatiga ta'siri yoritildi. Tadqiqot natijalari media tilini me'yorlashtirish va jurnalist nutqi madaniyatini oshirish masalalarining dolzarbligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *informatsion dastur, media tili, medialingvistika, monitoring, nutq madaniyati, Qoraqalpog'iston televideniyesi, til me'yorlari*

Аннотация. *В статье анализируются лингвистические и стилистические особенности медиаязыка, используемого в современных средствах массовой информации, в частности в информационных телепрограммах. Исследование проведено на материале информационных программ «Hudud» республиканского телеканала «My5 – Mening yurtim», а также «Xabar» Каракалпакского телевидения. В процессе мониторинга выявлены лексические, стилистические и нормативные недостатки в речи журналистов, а также освещено их влияние на культуру речи аудитории. Результаты исследования свидетельствуют об актуальности вопросов нормализации медиаязыка и повышения культуры речи журналистов.*

Ключевые слова: *медиаязык, медиалингвистика, информационная программа, культура речи, языковые нормы, мониторинг, Каракалпакское телевидение.*

Abstract. *The article analyzes the linguistic and stylistic features of media language used in modern mass media, particularly in informational television programs. The study is based on materials from the "Hudud" news program of the national television channel My5 – Mening yurtim and the "Xabar" informational program of Karakalpakstan Television. During the monitoring process, lexical, stylistic, and normative shortcomings in journalists' speech were identified, and their impact on the audience's speech culture was examined. The research findings demonstrate the relevance of issues related to the standardization of media language and the improvement of journalists' speech culture.*

Keywords: *media language, medialinguistics, informational program, speech culture, language norms, monitoring, Karakalpakstan Television.*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Kirish. Bugungi globallashuv va axborot oqimining keskin jadallashuvi sharoitida ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida muhim ijtimoiy institutga aylanib bormoqda. Televideniye, ayniqsa, informatsion dasturlar orqali nafaqat voqelikni yoritadi, balki auditoriya nutq madaniyatini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, jurnalist nutqida til me‘yorlariga rioya etilishi masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralmoqda.

Mazkur tadqiqotda quyidagi informatsion teledasturlar obyekt sifatida tanlandi:

“My5 – Mening yurtim” telekanalining “Hudud” informatsion dasturi;

Qoraqalpog‘iston televideniyesining asosiy axborot dasturi — “Xabar”.

Tahlil jarayonida monitoring, qiyosiy-lingvistik va stilistik tahlil qilindi. Dasturlar materiallari asosida jurnalist nutqidagi chet so‘zlar, leksik tanlov, adabiy til me‘yorlariga rioya etilishi masalalari o‘rganildi.

Axborot dasturlari har qanday telekanal ko‘rsatuvlarining asosini tashkil etadi. Axborot dasturining tuzilishiga, axborotning xususiyatiga qarab telekanal haqida bir fikr ga kelish, uning mafkuraviy yo‘nalishini belgilash mumkin. << Axborot – har qanday kanalning tashrif qog‘ozi >>, deb hisoblaydi televideniye tadqiqotchisi G.V.Kuznetsov.³

Televideniye asosiy xabar yetkazuvchi ko‘rsatuvlari, yani informatsion dasturlardagi xabar matini va boshlovchi nutqi lingvistik va uslubiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Nutq madaniyatini egallash, ayniqsa, tildan mahorat bilan foydalana olish, birinchi navbatda, aynan jurnalistlar uchun muhim. Ommaviy axborot vositalari vakillari uchun til faqat professional faoliyat quroligina emas, balki media tili auditoriya tomonidan ongli yoki g‘ayrihuuriy tarzda o‘zlashtirib olinadigan o‘ziga xos “namunaviy” til bo‘lib xizmat qiladi. Ana shu namunani, ya‘ni til me‘yorlarini OAV orqali o‘zlashtirgan auditoriya keyinchalik uni o‘z nutqida keng qo‘llaydiki, bu, o‘z navbatida, jamiyatda yangi, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri til me‘yorlarining qaror topishiga olib keladi.⁴

Bundan ko‘rinib turibdiki, media matn jamiyat uchun o‘zbek tilining mukammal “andoza”si sifatida namoyon etilishi lozim. Shu bois, bugungi kunda medialingvistika, axborot tili, OAV tili, jurnalistik matn tili va uslubi kabi tushunchalar ustida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning til me‘yorlariga amal qilinishidagi xato va kamchiliklar doimiy monitoring qilib borilmoqda. Ana shunday tadqiqotlardan birida medialingvistika fan sifatida e‘tirof etiladi. Medialingvistika - media sohasidagi zamonaviy bosma, audiovizual va internet tilini o‘rganuvchi fan sifatida bugungi globallashuv sharoitida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni jarayon, tabiiyki, ushbu yo‘nalishning chuqur ilmiy tadqiqotini taqozo qilmoqda.⁵

Media tili va medialingvistika masalalari

³ Mahmudov M., Fayziyeva F., Ablyayeva V. Televideniye asoslari. — Toshkent: «Voriz-nashriyot», 2009. — 108 b.

⁴ Toshboyeva D., Qodirova D. OAV tili milliy tilning barcha funksional turlari sifatida. — 2023.

⁵ https://uza.uz/oz/posts/media-tili-omma-ongini-boshqarish-omili_542357?ysclid=mfsk1l7avf953016885



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



So‘nggi yillarda tilshunoslikda medialingvistika alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Medialingvistika ommaviy axborot vositalarida qo‘llaniladigan tilning leksik, grammatik va stilistik xususiyatlarini o‘rganadi.

Tadqiqotlarda publisistikaning o‘ziga xosligi, jurnalistik matning uslubiyati, ommaboplik jihatlari chuqur o‘rganiladi. Xulosalarda, media tilining umumiy ta‘rifi shakllantirilgan bir qancha adabiyotlar mavjud. Shunday adabiyotlardan birida media tili quyidagicha ta‘riflanadi. “Media tili - bu ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, radio, televideniye, internet) da qo‘llaniladigan, keng auditoriyaga mo‘ljallangan, o‘ziga xos uslubiy va leksik xususiyatlarga ega shaklidir. Bu til turining asosiy xususiyatlari - aniqlik, ommaboplik, tezkorlik va ekspressivlikdir”.⁶ Media matn jamiyat uchun adabiy tilning namunasiga aylanishi lozim. Shu sababli, jurnalistik matn tilida adabiy me‘yorlardan chetga chiqish holatlari doimiy ilmiy kuzatuv va tahlilni talab etadi.

Ushbu kichik tadqiqotda media tilining monitoringi olib boriladi. Tadqiqotning obykti sifatida informatsion teledasturlar tahlil qilingan. Shulardan biri “My5 - Mening yurtim” telekanalining “Hudud” informatsion dasturi.

Dastur davomida muxbir tomonidan chetdan kirib kelgan so‘zlar bir necha bor qo‘llaniladi. Jumladan “...favarit bokschilar orasida hamyurtimiz ham bor...” (02.07.2025 soni, sport xabarleri) kabi ingliz tilidan kirib kelgan so‘zdan foydalanilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida” Qonunining 7-moddasida “Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi” deb ko‘rsatilgan.⁷ Demak, o‘zbek tilida faoliyat yuritayotgan har qanday OAV o‘zbek tilining adabiy til qoidalariga qilishi lozim. Lavhada muxbir “favarit” so‘zining o‘rniga “sevimli bokschi” “yetakchi”, “asosiy da‘vogar” kabi so‘zlarni qo‘llash mumkin bo‘lgan holda u chettan kirib kelgan so‘zning asliga muvofiq qo‘llanilishini tanlagan. Jurnalist nutqi auditoriya tomonidan me‘yoriy nutq sifatida qabul etilgani uchun o‘quvchi, tinglovchi yoki tomoshabin, ayniqsa, yoshlar o‘zlarining sevimli jurnallari, tele va radioboshlovchilariga taqlid etishga intiladilar, ularning nutqini “ko‘chira boshlaydilar”. Ana shunda auditoriyaga til vositasida ta‘sir qilinadi.⁸

Bunday ta‘sir yuqoridagi kabi tilning buzilishiga olib kelsa, u salbiy oqibatlarining ko‘payishi uchun xizmat qiladi.

Ana shunday misollardan yana biri “... tijorat banki tomonidan bir nechta “unical” loyihalar eko tizimi yaratilgan...” (“Hudud informatsion dasturi 03.07.2025 soni).

Bu yerda “unical” so‘zi o‘rniga “noyob”, “betakror”, “o‘ziga xos” kabi muqobillar mavjud. Bunday holatlar media tilining milliylik xususiyatlariga putur yetkazadi.

Qoraqalpog‘iston televideniyesi “Xabar” tilining xususiyatlari

⁶ M. Karimov “Media matnlar tili”, Toshkent, 2017

⁷ <https://lex.uz/docs/-1847330>

⁸ Toshboeva D., Qodirova D. OAV tili milliy tilning barcha funksional turlari sifatida. — 2023.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Qoraqalpog‘iston televideniyesining “Xabar” informatsion dasturida tilning soddaligi va auditoriyaga yaqinligi ustuvorlik qiladi. Monitoring natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur dasturda chet tillardan kirib kelgan so‘zlar bilan birgalikda o‘zbek adabiy tilidan olingan so‘zlar informatsion dasturlarning qoraqalpoq tilidagi sonlarida to‘g‘ridan- to‘g‘ri qo‘llanilgan holatlarini ko‘rishimiz mumkin.

Kuzatuvlarimiz davomida “Xabar” dasturining o‘zbek tilidagi sonida <<... xorijda malaka oshirish va **stajirovka** o‘tash dasturlarida ishtirok etkan pedgoglar sonini 100 nafardan 2500 nafarga yetkazish ko‘zda tutilgan >> (26.11.2025 yil). Ushbu jumladagi “**stajirovka**” deb rus tilidagi so‘zning o‘rniga o‘zbekcha muqobil variantini, ya‘ni “**amaliyot**” so‘zini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bundan tashqari, qoraqalpoq tilidagi sonida << Bizdiñ keyingi **lokaciyamız** Beruniy rayoni...>> (02.07.2025). Bu ko‘rsatuvdagi “**lokaciyamız**” so‘zining o‘rniga qoraqalpoqcha “**mánzilimiz**” degan ekvivalenti bor bo‘lsa ham ruscha varianti qo‘llanilgan.

Qoraqalpog‘iston televideniyesidagi “Háptelik” informatsion- tahliliy ko‘rsatuvda “...so‘ngi jillari shin mánisinde insan qádiri **ulu‘langanın** kóremiz”, “...bárshesi insan qádiri ideyası **asasında** ámelge asırılıp atırғанınan derek” (01.09.2024). Bu qoraqalpoq tilidagi ko‘rsatuvda o‘zbek tilidagi so‘zlarni to‘g‘ridan- to‘g‘ri tarjima qilmasdan yoki qoraqalpoq tilidagi bor bo‘lgan so‘zlarni topib qo‘llanilmagan. Ya‘ni, “**ulu‘langanın**” – “**ullilamlánın**”, “**asasında**” – “**tiykarında**” deya tarjima qilish maqsadga muvofiq. Bu kabi ko‘rsatuv matnidagi xatoliklar tamoshabinlar ongiga ta‘sir etishi, shu kabi boshqa tillardan kirgan internatsional so‘zlarni qo‘llash tabiiy holday qabul qilinishlari mumkin. “Xabar” dasturi hududiy auditoriya nutq madaniyatini saqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Jurnalist nutqi va auditoriyaga ta‘siri

Jurnalist nutqi auditoriya tomonidan me‘yoriy namuna sifatida qabul qilinadi. Ayniqsa, televideniye boshlovchilari va muxbirlar nutqi yoshlar orasida taqlid obyekti bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, media tilidagi har qanday xato jamiyat nutq madaniyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Ifodali, ta‘sirchan nutq tinglovchida qiziqish uyg‘otadi, uning ongiga tez yetib boradi, uning e‘tibori va qiziqishini qozonadi. Nutqning aloqaviy sifatlari – aniqligi, to‘g‘riligi, mantiqiyliigi, sofligi (tozaligi) – nutqning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Jurnalist va blogerlar nutqi samarador bo‘ishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Nutq auditoriyaga mos bo‘lishi kerak;
2. Nutq aniq bo‘lishi kerak;
3. Nutq ta‘sirchan bo‘lishi munosabat uyg‘otishi lozim;
4. Nutq aniq maqsadga yo‘naltirilishi kerak;





5. Nutq o'qilmaydi balki tinglanadi. Shu bois sof muloqot bilan bog'liq talablar vujudga keladiki, ularni hisobga olish zarur.⁹ Respublika va hududiy televideniye tahlili shuni ko'rsatadiki, media tilini monitoring qilish jurnalist nutqining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, informatsion dasturlar jurnalist nutqi orqali nafaqat axborot yetkazadi, balki auditoriya nutq madaniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jurnalist nutqida uchrayotgan chet tillardan kirib kelgan so'zlar, o'zbek va qoraqalpoq adabiy tilidagi muqobillarning yetarlicha qo'llanilmasligi, shuningdek, stilistik va normativ kamchiliklar media tilining milliylik va me'yoriylik xususiyatlariga putur yetkazmoqda.

Ayniqsa, internatsional so'zlarning asossiz qo'llanilishi til me'yorlariga zid holat sifatida baholandi. Bu kabi holatlar jurnalist nutqini auditoriya tomonidan me'yoriy namuna sifatida qabul qilinishini hisobga olganda, jamiyatda noto'g'ri til birliklarining ommalashuviga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston televideniyesida ayrim ko'rsatuvlarda o'zbek tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilingan yoki mavjud qoraqalpoqcha muqobillari bo'la turib, boshqa tillardagi so'zlardan foydalanilganligi aniqlandi. Bu holat hududiy auditoriya nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimolini kuchaytiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari media tilini doimiy monitoring qilish, jurnalist nutqi madaniyatini oshirish va adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilish masalalari bugungi kunda nihoyatda dolzarb ekanini ko'rsatdi.

Tavsiyalar

- Televideniye jurnalistlari va boshlovchilari uchun til me'yorlari bo'yicha doimiy o'quv-seminarlar tashkil etish va bu mashg'ulotlar orqali adabiy til qoidalari, media nutq madaniyati va stilistik talablar mustahkamlanadi.

- Informatsion dasturlar matnlarini efirga uzatishdan oldin lingvistik tahrirdan o'tkazish amaliyotini kuchaytirish, chet tillardan kirib kelgan so'zlar o'rniga milliy muqobillarni qo'llash imkonini oshiradi.

- Media tilini monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yish.

Respublika va hududiy telekanallarda muntazam ravishda jurnalist nutqidagi leksik va normativ kamchiliklarni tahlil qilib borish tavsiya etiladi.

- Milliy va hududiy tillarning (o'zbek va qoraqalpoq tillari) ichki imkoniyatlaridan keng foydalanish.

Mavjud muqobil so'zlar bo'la turib, chet tillardagi birliklardan foydalanishdan tiyilish zarur.

- Medialingvistika yo'nalishida ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish.

⁹ Bazarov S. Jurnalist va bloggerlar nutqi etikasi // Innovatsion tadqiqotlar zamonaviy dunyoda: nazariya va amaliyot. — 2024.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Media tilining jamiyat ongiga ta'siri, auditoriya nutq madaniyatini shakllantirishdagi roli chuqurroq o'rganilishi lozim.

- Jurnalist nutqini auditoriya uchun “namunaviy til” sifatida shakllantirishga alohida e'tibor qaratish. Chunki televideniye nutqi yoshlar va keng jamoatchilik tomonidan ongli va g'ayrihuuriy tarzda o'zlashtiriladi.

Mazkur tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi informatsion teledasturlar tilining sifatini oshirish, milliy til me'yorlarini mustahkamlash hamda jamiyat nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bazarov, S. (2024). Jurnalist va blogerlar nutqi etikasi. Innovatsion tadqiqotlar zamonaviy dunyoda: nazariya va amaliyot, 3(1), 36–39. <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/26076>
2. Karimov, M. (2017). Media matnlar tili. Toshkent.
3. Mahmudov, M., Fayziyeva, F., & Ablyayeva, V. (2009). Televideniye asoslari (108 b.). Toshkent: Voris-nashriyot.
4. Toshboyeva, D., & Qodirova, D. (2023). OAV tili milliy tilning barcha funksional turlari sifatida.
5. https://uza.uz/oz/posts/media-tili-omma-ongini-boshqarish-omili_542357?ysclid=mfsk117avf953016885
6. <https://lex.uz/docs/-1847330>